

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

MAKTABGACHA TARBIYA YOSHIDAGI BOLALAR NUTQIDA

UCHRAYDIGAN NUQSONLARNING BOLA RUHIYATIGA

PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK TA'SIRI

Sharipova Ferangiza Sayodovna

*Osiyo Xalqaro Universiteti Pedagogika va
psixologiya yo'nalishi 1-kurs magistranti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar nutqida uchraydigan nuqsonlarning bola ruhiyatiga pedagogik-psixologik ta'siri o'r ganilgan.

Kalit so'zlar: temperament, individuallik, nutq, psixologik trening, ehtiyoj, faoliyat, perseosiya.

Аннотация. В данной статье исследуется педагогико-психологическое влияние дефектов речи детей дошкольного возраста на психику ребенка.

Ключевые слова: темперамент, индивидуальность, речь, психологическая тренировка, потребность, активность,perseсия.

Annotation. This article explores the pedagogical-psychological effects of speech impairments in preschool-age children on the child's psyche.

Key words: temperament, individuality, speech, psychological training, need, activity, perseverance.

«Ta'lim to'grisida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 22-, 23- va 24-moddalarida, jumladan, jismoniy yoki psixik rivojlanishida kamchiliklari bo'lган, shuningdek, uzoq muddat davolanishga ehtiyoj sezgan bolalar va o'smirlarga ta'lim-tarbiya berish, ularni davolash uchun maxsus ta'lim muassasalari tashkil etiladi, deb belgilab qo'yilgan.

Nutq – faqatgina insonga xos bo'lган muhim psixik funksiyadir. Nutq murakkab funksional tizimni o'z ichiga oluvchi jarayon hisoblanadi. Bu tizimning

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

har bir tarkibiy qismi boshqa qismlar bilan bog'langan. Nutqiy munosabatlar yordamida, shaxs ongida borliqni aks ettiruvchi bilimlar doimiy ravishda to'ldirilib va boyitib boriladi.

Nutq nuqsonlarini o'rganish, oldini olish va korreksiya bilan korreksion pedagogikaning muhim sohasi – logopediya shug'ullanadi. Patogen omil ta'sirida yuzaga kelgan nutqiy buzilishlar o'z-o'zidan yo'qolmaydi va u maxsus tashkil etilgan korreksion-logopedik choralarsiz bolaning keyingi rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Nutq buzilishlari deganda, turli kasalliklar oqibatida tarkib topgan nutqning buzilishi kattalarda yoki bolalar nutqining normal rivojlanishidagi buzilishlar tushiniladi. Nutq faoliyati normal rivojlanishi uchun miyaning barcha qismlari va tuzilmalari saqlangan va sog' bo'lishi lozim. Eshitish, ko'rish va motor analizatorlaridagi periferik va markaziy bo'lmlarining shikastlanishi esa nutqning u yoki bu buzilishlarini keltirib chiqaradi.

Nutqiy buzilishini keltirib chiqaruvchi sabablar orasida ekzogen va endogen omillar asosiy rol o'ynaydi. Bundan tashqari anatomik - fiziologik, morfologik, funksional, ijtimoiy-psixologik ya'ni atrof-muhitning salbiy ta'siri, psixonevrologik sabablarning ham ta'siri sezilarli bo'ladi.

Nutq buzilishlariga ega bolalarning psixik rivojlanishida umumiyligi va o'ziga xos qonuniyatlar mavjud.

1. Umumiy qonuniyatlar — normal rivojlanayotgan bolalar va rivojlanishida chekinishlar bo'lgan bolalar uchun birdek xos bo'lgan qonuniyatlar. Bular: rivojlanishning bosqichma-bosqich kechishi; psixik rivojlanishning sakrash yo'li bilan borishi; sentiziv davrlarning mavjudligi; biologik va ijtimoiy omillarning o'zaro munosabati; shaxs rivojlanishining muntazamligi.

2. Dizontogenez sharoitida rivojlanishning o'ziga xos qonuniyatlariga quyidagilar kiradi (bunda faqat nutq buzilishlariga ega bolalar guruhlari nazarda tutiladi): axborotni qabul qilish, qayta ishlash, saqlash va undan foydalanishdagi buzilishlar; nutq aloqalarining buzilishi; atrof-muhit haqidagi tasavvurlar va tushunchalarning shakllanish muddatlarining uzayganligi; ijtimoiy-psixologik

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

moslashmaslik holatlarining yuzaga kelish xavfi; psixologik tizimning shakllanishidagi o'ziga xoslik (o'zidan qoniqmaslik hissi, o'ziga baho berishning buzilishi, stresslarga qarshilikning pasayishi va h.k.); kompensatorlik jarayonlarining olib boriladigan korreksion ishning vaqt va sifatiga bog'liqligi. Homilaning rivojlanish davrida, tug'ruq paytida, hamda bola hayotining birinchi yillarida miyaga turli xil zararli ta'sirlar nutq patologiyasiga olib kelishi mumkin.

Nutq kamchiligining tuzilishi va darajasi ko'pincha miya shikastlanishining og'irlik darajasiga va uning oldini olishga bog'liq bo'ladi, bu omillar esa o'z navbatida miyaga vaqtning patogen ta'siriga bog'liq. Embriogenezning ilk davrida asab hujayralari jadallik bilan ajralishi paytida homilaning 3—4 oyligida og'ir miya shikastlanishi paydo bo'ladi

Nutq buzilishlarining ko'pgina ko'rinishi minimal miya disfunksiyasiga ega bolalarda kuzatiladi. Buning asosida miya alohida funksional tizimi yetilishining buzilishi va sinapslararo aloqalarning to'la shakllanmaganligi yotadi. Bunday buzilishlar natijasida turli xil, nerv-psixik faoliyatining yaqqol ifodalanmagan buzilishlari kuzatiladi va bular harakat notinchligi, xotira buzilishi, diqqat, xulq buzilishi, turli nutq kamchiliklari ko'rinishida kuzatiladi.

Nutqiy kamchiliklarni korreksiyalash, yetakchi faoliyatni hisobga olish bilan birgalikda olib boriladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda o'yin faoliyati, motorika, sensorsoha, lug'at boyligi, til qonuniyatlarini egallah bola shaxsini shakllantirish jarayonida olib boriladi. Turli xil nutqiy kamchiliklarni bartaraf etishda logopedik ta'sirning asosiy shakllari bo'lib, ta'lim -tarbiya, korreksiya, kompensatsiya, adaptatsiya, reabilitatsiya hisoblanadi

Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan olib boriladigan ishda og'zaki metodlar, amaliy va ko'rgazmali metodlar bilan birgalikda olib boriladi. Maktab yoshidagi bolalar bilan ishlashda asosan og'zaki metodlarga tayaniadi. Misol uchun, duduqlanishni bartaraf etishda o'qilgan kitob, ma'ruza, yod olingan she'r, o'qiganini hikoya qilish, shaxsiy tajribalarini gapirib berish xususida suhbatlar o'tkaziladi

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Psixologik-pedagogik tasnif logoped ishining amaliy ehtiyojlari hisobga olingan holda tuziladi. Bu tasnif avvalambor psixologik-lingvistik mezonlar asosida nutq simptomatikasini aniqlashga qaratilgan bo'ladi. Bu tasnidfa nutqning qaysi komponentlari va qay darajada buzilganligi hisobga olinadi, bu esa nutq buzilishlarining quyidagi guruhlarini farqlashga imkon beradi:

- 1) nutqning fonetik buzilishlari — bitta tovush yoki bir nechta tovushlarning talaffuzda buzilishi;
- 2) nutqning fonetik-fonematik buzilishlari — bu yerda nutqning fonetik jihatlari bilan birga fonematik jarayonlarning ham rivojlanmay qolganligi kuzatiladi;
- 3) nutqning to'liq rivojlanmaganligi (I, II, III, IV darajalari) — bunda til tizimining barcha komponentlari (leksika, grammatika, fonetika va fonematika) buzilgan bo'ladi;
- 4) duduqlanish. Bunda nutqning kommunikativ (aloqa o'rnatish) funksiyasi buziladi.

Psixologik-pedagogik diagnostika o'tkazilganidan keyin, nutq kamchiliklarining xulosalari ikkala tasnif asosida quyidagi tartibda keltiriladi.

1. Nutqning toliq rivojlanmaganligi (I daraja). Motor alaliya.
2. Nutqning to'liq rivojlanmaganligi (1 daraja). Sensor alaliya.
3. Nutqning toliq rivojlanmaganligi (1 daraja). Aniq ifodalanmagan soxta bulbar dizartriya.
4. Nutqning toliq rivojlanmaganligi (I daraja). Motor alaliya, duduqlanish.
5. Nutqning toliq rivojlanmaganligi (I daraja). Sensomotor alaliya.
6. Nutqning toliq rivojlanmaganligi. Bolalar afaziyasi.
7. Nutqning toliq rivojlanmaganligi (II daraja). Aniq ifodalanmagan soxta bulbar dizartriya.
8. Nutqning toliq rivojlanmaganligi (II daraja). Motor alaliya.
9. Nutqning toliq rivojlanmaganligi (II daraja). Motor alaliya, duduqlanish.
10. Nutqning leksik-grammatik rivojlanmaganligi. Motor alaliyadan chiqish.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

11. Nutqning fonetik-fonematik buzilishi. Aniq ifodalanmagan soxta bulbar dizartriya.

12. Nutqning fonetik-fonematik buzilishi. Ochiq organik rinolaliya.

13. Nutqning fonetik buzilishi. Funksional motor dislaliya.

14. Nutqning fonetik buzilishi. Ochiq organik rinolaliya

Nutq kamchiligiga ega bolalarni tarbiyalash jarayonida ota-onalar va pedagoglar doimo o‘z xulq-atvorini va o‘zining mavqeyini anglashi lozim. O’zaro tushunish, rag‘batlantirish, o‘zaro hurmat, tartibni saqlash, oila a’zolari o‘rtasidagi singari pedagog va ota-onalar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir nutq kamchiligiga ega bolalardagi psixogen reaktiv holatlar profilaktikasida jiddiy rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. L.R.Mo‘minova, Sh.M.Amirsaidova, Z.N. Mamarajabova, M.U.Xamidova, D.B.Yakubjanova, Z.M.Djalolova, N.Z.Abidova “Maxsus psixologiya” Toshkent-2013
2. M.Ayupova “Logopediya” Toshkent 2007
3. L.R.Mo‘minova “Nutmida kamchiligi bor bolalarning psixologik-pedagogik diagnostikasi” Toshkent-2012
4. Nurkeldiyeva M. “Maktabgacha va korreksion pedagogika” Toshkent-2013